

## **KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Chorshanbiyev Ibroxim Raxmon o'g'li**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, I bosqich magistranti

**Ilmiy rahbar:** TerDU v.b.dotsenti i.f.f.d **A.M.Xudoyqulov**

### **Annotatsiya**

Mazkur tezisdagi korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ichki audit tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Ichki audit tizimi nafaqat moliyaviy intizomni mustahkamlash, balki ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, ortiqcha xarajatlarni aniqlash va boshqaruv qarorlarini puxta asoslashda ham muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotda ichki auditning xalqaro tamoyillari, milliy me'yoriy hujjatlar bilan uyg'unligi, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari va amaliy muammolar yoritilgan. Natijalarga ko'ra, ichki audit tizimini takomillashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi hal qiluvchi omillardan biri ekanligi isbotlandi.

**Kalit so'zlar.** Ichki audit, ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy intizom, resurslardan oqilona foydalanish, audit standartlari, riskga asoslangan audit, raqamli texnologiyalar, samaradorlik ko'rsatkichlari, boshqaruv qarorlari.

### **Abstract**

This thesis analyzes the theoretical and practical aspects of improving the internal audit system in order to increase production efficiency at enterprises. The internal audit system is an important tool not only for strengthening financial discipline, but also for ensuring the rational use of production resources, identifying excess costs and thoroughly substantiating management decisions. The study covers the international principles of internal audit, its compatibility with national regulatory documents, the possibilities of using modern technologies and practical problems. According to the results, it was proven that improving the internal audit system is one of the decisive factors in increasing production efficiency.

**Keywords.** Internal audit, production efficiency, financial discipline, rational use of resources, audit standards, risk-based audit, digital technologies, performance indicators, management decisions.

**Kirish.** Bozor iqtisodiyotining jadal rivojlanishi sharoitida korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonni ta'minlash uchun samarali ichki audit tizimi zarur, chunki ichki audit orqali xarajatlar nazorat qilinadi, resurslardan foydalanish tahlil qilinadi va moliyaviy natijalarning ishonchliligi kafolatlanadi. Ichki auditning mazmuni nafaqat moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini tekshirishdan iborat, balki ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda ham strategik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda ichki audit tizimining dolzarbligi yanada oshib bormoqda. Chunki globallashuv va xalqaro integratsiya jarayonlari natijasida korxonalar faoliyati murakkablashmoqda, raqamli iqtisodiyot sharoitida esa audit jarayonlari ham avtomatlashtirilgan, tezkor va ishonchli bo'lishi talab qilinmoqda. Shuning uchun ham ichki audit tizimini takomillashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Iqtisodiy islohotlar jarayonida korxonalarining samarador faoliyati ularning ichki nazorat va audit tizimiga bevosita bog'liqdir. Ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan barcha xarajatlar, resurslardan foydalanish samaradorligi va moliyaviy natijalar ichki audit orqali muntazam nazorat qilinadi. Shu jihatdan ichki audit tizimini takomillashtirish korxonalarda nafaqat moliyaviy intizomni ta'minlaydi, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida ichki audit jarayonlari zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashishi zarur.

**Asosiy qism.** Ichki audit tizimi korxonaning ichki nazorat mexanizmlarini baholash va mustahkamlashga qaratilgan. Amaliyot ko'rsatadiki, samarali ichki audit mavjud bo'lmagan korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari ortiqcha ko'payadi, resurslardan foydalanishda samarasizlik kuzatiladi va moliyaviy natijalar buziladi. Ichki audit tizimi to'g'ri tashkil etilganda esa ishlab chiqarish tannarxi optimallashtiriladi, foyda ko'rsatkichlari to'g'ri shakllanadi va boshqaruv qarorlari ishonchli ma'lumotlar asosida qabul qilinadi.

Xalqaro tajriba ichki auditning riskga asoslangan yondashuvini samarali deb hisoblaydi. Bu yondashuvda auditorlar barcha jarayonlarni emas, balki xatolik ehtimoli yuqori bo'lgan sohalarni chuqur tekshiradi. Milliy sharoitda esa ichki auditni yanada samarali qilish uchun hujjat aylanishi tizimini raqamlashtirish, ERP tizimlari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, auditorlarning malaka darajasini oshirish, xalqaro standartlarni milliy me'yorlar bilan uyg'unlashtirish ham muhim vazifalardan biridir.

Ichki audit tizimining takomillashuvi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, chunki u ortiqcha xarajatlarni aniqlash, normativlardan chetga chiqishni oldini olish, resurslardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ichki audit tizimi korxonada yuzaga keladigan moliyaviy va ishlab chiqarish jarayonlarini uzluksiz nazorat qilib borishga qaratilgan. U ichki nazorat mexanizmlarining samaradorligini baholaydi, ortiqcha xarajatlarni aniqlaydi, resurslardan foydalanish samaradorligini tahlil qiladi va boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim manba vazifasini bajaradi.

Xalqaro tajribalar ichki auditning samarali modellarini ishlab chiqqan. Masalan, INTOSAI va IFAC tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillarda ichki auditning asosiy vazifalari sifatida risklarni baholash, nazorat mexanizmlarini mustahkamlash, moliyaviy intizomni ta'minlash va boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash ko'rsatilgan. AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlarda ichki audit korxonalarining faoliyatining strategik bo'g'ini sifatida qaraladi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda bevosita ishtirok etadi.

Milliy sharoitda esa ichki audit tizimi hali to'liq mukammal darajaga yetmagan. Amaliyot ko'rsatadiki, ko'plab korxonalarda ichki audit faqat hujjatlarni tekshirish bilan cheklanib qolmoqda, biroq uning tahliliy va strategik funksiyalari yetarli darajada rivojlanmagan. Shu sababli milliy standartlarni xalqaro talablarga moslashtirish, ichki auditning samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifadir.

Ichki audit tizimini takomillashtirishda quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. **Riskga asoslangan yondashuv** – barcha jarayonlarni emas, balki eng muhim va xatarli sohalarni chuqur tekshirish.
2. **Raqamli texnologiyalarni joriy etish** – ERP tizimlari, Big Data, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali audit samaradorligini oshirish.
3. **Ichki nazoratni mustahkamlash** – hujjat aylanishini raqamlashtirish, normativlardan chetga chiqishni tezkor aniqlash.
4. **Auditorlarning malakasini oshirish** – ishlab chiqarish texnologiyalarini chuqur biladigan, xalqaro va milliy standartlarga ega mutaxassislarni tayyorlash.

Ichki audit tizimi samarali tashkil etilganda ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Masalan, ortiqcha xarajatlarning qisqarishi, normativlardan chetga chiqishning kamayishi, foyda ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, boshqaruv qarorlarining asoslanganligi bunga yaqqol dalildir.

**Xulosa.** Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ichki audit tizimi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda strategik vosita sifatida qaralishi lozim. U moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini kafolatlabgina qolmay, balki resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish va boshqaruv qarorlarini puxta asoslash imkonini beradi.

Kelgusida ichki audit tizimini takomillashtirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur: xalqaro va milliy standartlarni uyg'unlashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, riskga asoslangan audit yondashuvini qo'llash, auditorlarning malakasini oshirish va ichki nazorat tizimini mustahkamlash. Shu yo'l bilan ichki audit tizimi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ajralmas bo'g'ini sifatida shakllanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аренс Э.А., Лоббек Дж.К. Аудит. – М.: Финансы и статистика, 2017. – 560 с.
2. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – Минск: Новое знание, 2021. – 688 с.
3. Соколов Я.В. Теория бухгалтерского учета. – М.: Финансы и статистика, 2018. – 512 с.
4. Ковалев В.В. Финансовый анализ: методы и процедуры. – М.: Финансы и статистика, 2018. – 432 с.
5. Международные стандарты аудита (ISA). – IFAC, 2020. – 432 с.
6. INTOSAI. International Standards of Supreme Audit Institutions. – Vienna: INTOSAI, 2020. – 260 p.
7. Абдурасулов А.Х. Корхоналарда ички назорат ва аудитни такомиллаштириш. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2021. – 280 б.
8. OECD. Audit Quality Indicators: Measuring what matters. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 185 p.
9. Бобохонов Н.Ф. Ишлаб чиқариш харажатлари аудитининг амалий жиҳатлари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2023. – 198 б.